

---

## Vazirning tumanimizga tashrifi

Tumanimizda sport yo'nalishida olib borilayotgan ishlar bilan tanishish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Sport vaziri Adham Ikramov tashrif buyurdi.

Sport vaziri Adham Ikramov tuman sektor rahbarlari hamrohligida "Shomirza" mahalla fuqarolar yig'inida buniyod etilayotgan "Chim ustida xokkey" kopleksidagi qurilish ishlari bilan tanishdi.

Tashrif davomida mas'ullarga mahalladagi yoshlar o'tasida ommaviy sport musobaqalarini tizimli tashkil etish orqali sog'lom turmush tarzini keng targ'ib qilish, ularni ommaviy sportga jalb etishni yangi bosqichga olib chiqish yuzasidan tizimli topshiriqlar berildi.

Tuman hokimi tomonidan sporning nayza uloqtirish, kamondan o'q otish hamda regbi turlarini rivojlantirish maqsadida sport maktabi qurish taklifi ilgari surildi. Rahbarlar ishtirokida "Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasida "Chim ustida xokkey" kopleksining hududiga daraxt ko'chatlari ekildi.





---

2024-11-27 20:21:21